



O'ZBEKISTON-TURKIYA MUNOSABATLARINING YANGI DAVRI

Azizova Feruza Vasikovna

Katta o'qituvchi Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Annotatsiya: So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining Turkiya bilan munosabatlari sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarildi. Binobarin, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida Turkiya bilan bo'lgan munosabatlar dolzarbligicha qolmoqda.

Shunday qilib, O'zbekiston-Turkiya aloqalarining hozirgi holati davlatlarimizning bir-birlari bilan uzoq muddatli strategik hamkor ekanliklaridan dalolat beradi. Bu esa, ikki mamlakat xalqlarining milliy manfaatlariga va hozirgi zamon talablariga to'la mos keladi. Mazkur maqolada uzoq yillik tanaffusdan so'ng 2017-yil oktyabrda O'zbekiston rahbari Turkiyaga tashrifi doirasida o'zbek-turk munosabatlari tarixida birinchi marta Qo'shma bayonot imzolanib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar strategik hamkorlik darajasida mustahkamlanganligi hamda hamkorlikning turli sohalariga oid kelishuv ham imzolandi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: investitsiya, klaster, strategik, eksport, import, sammit

Аннотация: За последние годы отношения между Республикой Узбекистан и Турцией вышли на качественно новый уровень. Таким образом, отношения с Турцией остаются актуальными во внешнеполитической деятельности Узбекистана.

Таким образом, нынешнее состояние узбекско-турецких отношений свидетельствует о том, что наши страны являются долгосрочными стратегическими партнерами друг друга. Это полностью соответствует национальным интересам народов двух стран и требованиям современности. В данной статье рассказывается о том, как после длительного перерыва, в октябре 2017 года, в ходе визита главы Узбекистана в Турцию впервые в истории узбекско-турецких отношений было подписано Совместное заявление, укрепившее отношения между нашими странами до уровня стратегического сотрудничества, а также были подписаны соглашения по различным направлениям сотрудничества.

Ключевые слова: инвестиции, кластер, стратегический, экспорт, импорт, саммит

Abstract: In recent years, the relations of the Republic of Uzbekistan with Turkey have risen to a qualitatively new level. Consequently, relations with Turkey remain relevant in the foreign policy activities of Uzbekistan.

Thus, the current state of Uzbek-Turkish relations indicates that our countries are long-term strategic partners with each other. This fully corresponds to the national interests of the peoples of the two countries and the requirements of the present time. This article describes how, after a long break, in October 2017, during the visit of the head of Uzbekistan to Turkey, a Joint Statement was signed for the first time in the history of Uzbek-



Turkish relations, strengthening relations between our countries to the level of strategic cooperation, and agreements were also signed on various areas of cooperation.

Keywords: *investment, cluster, strategic, export, import, summit*

KIRISH

Turkiya va O'zbekistonni ko'p asos — o'xshash til, uyqash an'ana va tutumlar, yagona din, azaliy do'stlik va uyg'un madaniy aloqalar bog'lab turadi. Ikki xalq tamadduni geosiyosiy joylashuv va tarixiy taraqqiyotdan tortib, hozirgi rivojlanish bosqichida kechayotgan islohotlarning o'ziga xosligigacha bo'lgan ko'p umumiy jihatlarga ega.

Asosiy qism. Turkiya O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olib, ikki davlat o'rtasida diplomatiya munosabatlari o'rnatilgach, 1992-yil aprelda Turkiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1993-yil yanvarda esa O'zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Istanbulda O'zbekiston Respublikasining Bosh konsulxonasi ochildi.

Mustaqil O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidagi delegatsiyasining xorijga ilk rasmiy tashrifi 1991-yil dekabr oyida Turkiyaga bo'ldi. 1990 va 2000-yillar boshida Islom Karimov Turkiyaga bir necha bor tashrif buyurdi. Turkiya Prezidenti Turg'ut O'zal, Turkiya Bosh vaziri Tansu Chiller, Turkiya Respublikasi Prezidenti Sulaymon Demirel ham O'zbekistonda bo'ldi. 2003-yilda Rejep Tayyip Erdog'an (o'sha paytda -Turkiya Bosh vaziri sifatida) O'zbekistonga keldi.

O'zR Prezidenti I.A.Karimov 1991-yil dekabr, 1994-yil iyun va 1997-yil noyabrda rasmiy tashrif bilan Turkiyada bo'ldi. 1998-yil oktabrda Turkiya Respublikasining 75 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda ishtirok etdi. O'z navbatida, Turkiya Prezidentlari T. O'zal, S. Demirel va boshqa davlat arboblari bir necha bor rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldilar. Ana shu tashrif va muloqotlar natijasida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasida „Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida“gi shartnoma hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, harbiy va harbiy-texnikaviy aloqalar, terrorizm va narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash, huquqiy yordam, sog'liqni saqlash, transport, sayyohlik, madaniyat va boshqa sohalarda 78 hujjat imzolandi.

O'zbekiston va Turkiya munosabatlaridagi tub o'zgarish Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi bilan bog'liq. Shavkat Mirziyoyev mamlakat Prezidenti vazifasini bajaruvchi bo'lib turgan 2016-yil noyabrdayoq turk yetakchisi O'zbekistonga keldi. Keyinchalik O'zbekiston va Turkiya rahbarlari 2017-yil may oyida Xitoydagi „Bir makon, bir yo'l“ forumida, o'sha yil sentyabr oyida Ostona shahrida Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammiti doirasida, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida yana uchrashdi.

Uzoq yillik tanaffusdan so'ng 2017-yil oktyabrda O'zbekiston rahbari Turkiyaga tashrif buyurdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning oliy darajadagi bu tashrifi doirasida o'zbek-turk munosabatlari tarixida birinchi marta Qo'shma bayonot imzolanib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar strategik hamkorlik darajasida



mustahkamlandi. Hamkorlikning turli sohalariga oid 20 dan ziyod kelishuv ham imzolandi.

2017-yil oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi bilan hamkorlik bo'yicha Parlamentlararo guruhi tashkil etildi. 2018-yil 10-fevraldan boshlab Turkiya fuqarolarining O'zbekistonga kelishi uchun vizasiz rejim joriy etildi (Turkiya 2007-yildan buyon O'zbekiston fuqarolari uchun vizasiz rejimni qo'llab keladi). "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi 2017-yildan Samarqand-Istanbul yo'nalishida to'g'ridan-to'g'ri reyslarni yo'lga qo'ygan bo'lsa, shu yildan "Turk avialiniyalari" aviakompaniyasi ham ushbu yo'nalishda to'g'ridan-to'g'ri aviatashuvlarni amalga oshira boshladi.

Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning 2018-yil bahoridagi yurtimizga davlat tashrifi ham O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi endilikda strategik bo'lgan munosabatlarni chuqurlashtirishda muhim rol o'ynadi. Tashrif doirasida hukumat darajasida ko'plab hujjatlar imzolandi. Shuningdek, ikki davlat rahbarlari boshchiligida oliy darajadagi O'zbekiston — Turkiya strategik sheriklik kengashini tuzish haqida kelishuvga erishildi. Kengashning birinchi yig'ilishi 2020-yil fevralda Anqarada bo'lib o'tdi.

Tashrif doirasida O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va Turkiya "Eksimbank"i turk yetkazib beruvchilari va pudratchilari ishtirokidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun 250 million dollarlik zayom jalb qilish bo'yicha bitim imzoladi. "O'zsanoatqurilishbank" esa "Eksimbank" bilan 26 million dollarlik kredit bitimi tuzdi. "Asakabank" va Turkiya Eksport-import banki o'rtasida kichik va o'rta biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun 24 million dollarlik zayom kredit bitimi tuzildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi va Turkiya Energetika va tabiiy resurslar vazirligi o'rtasida geologiya-qidiruv ishlarini o'tkazish bo'yicha kelishuv imzolandi. Shuningdek, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikka doir kelishuvga erishildi. Bu esa O'zbekistonda ziyorat turizmini faol rivojlantirishga imkon beradi.

So'nggi yillardagi faol hamkorlik mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning sezilarli kengayishiga olib keldi. Jumladan, 2016-2021-yillarda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi tovar aylanmasi 2,9 barobar, eksport 2,5 barobar, import 3,5 barobar o'sdi.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi o'zaro savdo hajmining jadal o'sishi natijasida Turkiya 2021-yilda O'zbekistonning to'rtinchi eng yirik tashqi savdo hamkoriga aylandi. So'nggi 3 yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan turk investitsiyalari hajmi ikki barobar oshib, 2021-yil yakuniga ko'ra 1,2 milliard dollarni tashkil etdi. "Chalik Holding", "Akaya Inshaat", "Varnet" kabi turk kompaniyalari va boshqa investorlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Energetika sohasida turk shirkatlari bilan (AKSA Energy, Odash Energy,



Cengiz Energy) 6 ta issiqlik elektrostansiyasi bo'yicha loyiha amalga oshirilmoqda, ulardan to'rttasi ishga tushdi, yana ikkitasi 2022-yilda foydalanishga topshiriladi.

2022-yilning 1-mart holatiga ko'ra, O'zbekistonda Turkiya kapitali ishtirokidagi 1900 dan ziyod korxona faoliyat yuritmoqda. Holbuki, 2018-yil 1-yanvarda ularning soni 508 ta edi (2022-yilda 2017-yildagiga nisbatan o'sish 3,8 barobar). Shuningdek, 2022-yil yanvar-fevral oylarida O'zbekistonda tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi yangi korxonalar soni bo'yicha ham Turkiya (63 ta) yetakchilik qilmoqda. Keyingi o'rinlarda Rossiya (51 ta), Qozog'iston (29 ta) va Xitoy (25 ta) turibdi.

O'zbekiston Turkiyaga rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, paxta tolasi, kalava-ip, meva-sabzavot mahsulotlari, xizmatlar, azotli o'g'itlar, neftni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar eksport qiladi. Turkiyaning O'zbekistonga importi parfyumeriya, kosmetika vositalari, mexanik va elektr uskunalari, plastmassa va ulardan tayyorlangan buyumlar, to'qimachilik, kimyo, farmatsevtika mahsulotlaridan iborat.

Turk namunasi asosida klaster yondashuvi joriy etilayotgan teridan poyabzal va kiyim-kechak ishlab chiqarish sohasi ham hamkorlikni chuqurlashtirish uchun istiqbolli yo'naliash hisoblanadi. Klaster doirasida O'zbekistonda terini qayta ishlash, poyabzal, shuningdek, atir-upa mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha fabrikalar ochilmoqda. Kelajakda ular MDH mamlakatlariga eksport qilish uchun yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradi.

Ikki davlat rahbarlari 2018-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvda besh yil ichida Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi yillik savdo hajmini besh milliard dollarga yetkazishga kelishib olgan edi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasida imtiyozli savdo to'g'risidagi bitimning tuzilishi ushbu vazifani hal qilishga ko'mak beradi. Bu orqali esa tomonlar savdoda bir-biriga uchinchi davlatlarga qaraganda qulayroq rejimni taqdim etadi.

Turkiya va O'zbekiston o'rtasida nafaqat ikki tomonlama munosabatlar faol rivojlanmoqda, balki ko'p tomonlama formatlarda ham hamkorlik qilinmoqda. Turkiy tilli davlatlar tashkilotidagi ishtirok ham O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi xalqaro hamkorlikning muhim qismlaridan biridir.

Ushbu tashkilot Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi (Turkiy kengash) nomi ostida 2009-yilda tashkil etilgan. O'zbekiston unga 2019-yil 15-oktyabrda Boku shahrida bo'lib o'tgan yettinchi sammitda to'laqonli a'zo sifatida qo'shildi. Tashkilotning 2021-yil 12-noyabrda Istanbul shahrida o'tkazilgan sakkizinchi sammitida uning nomi Turkiy davlatlar tashkilotiga o'zgartirildi. Shuningdek, sammitda turk dunyosining 2040-yilgacha bo'lgan davr uchun konsepsiyasi ham tasdiqlandi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkilotining birinchi sammitini 2022-yilda O'zbekistonda o'tkazishni taklif qildi. Taklif qabul qilindi.

2024-yil 6-iyun kuni Shavkat Mirziyoyev va Rajab Toyyib Erdog'an raisligida O'zbekiston-Turkiya oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.



“Strategik hamkorlik kengashining tashkil etilishi O‘zbekiston-Turkiya munosabatlari tarixida yangi sahifa ochdi va sheriklikning barcha sohalarida yanada rivojlanishga kuchli sur‘at bag‘ishladi”, — dedi Shavkat Mirziyoyev So‘nggi yillarda o‘zaro savdo hajmi 1,5 barobarga, qo‘shma korxonalar soni 2 barobarga, O‘zbekiston iqtisodiyotiga turk investitsiyalari hajmi 2,5 barobarga oshgan. Ikki davlatning yirik shaharlari o‘rtasida haftasiga 90 ta parvoz amalga oshirilmoqda, Turkiyadan kelayotgan turistlar oqimi 3 barobarga ko‘paygan.

Hozirda O‘zbekistonda Cengiz Holding, Aksa Energy, Çalık Holding, Akay İnşaat, Anadolu Group, Özgüven, Eczacıbaşı Holding kabi yetakchi turk kompaniyalari tomonidan 100 dan ortiq loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Bu galgi tashrif doirasida 10 milliard dollarlik yangi investitsiya loyihalari portfeli shakllantirildi. Bundan tashqari, yaqin kelajakda ikki tomonlama savdo hajmini 5 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Tomonlar ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va birgalikda uchinchi davlatlar bozorlariga chiqish muhimligini ta’kidladi.

“Hamkorlikning yana bir muhim yo‘nalishi ikki mamlakatning transport-logistika salohiyatini oshirish, shu jumladan, O‘rta koridor imkoniyatlaridan samarali foydalanishdir”.

Davlatlar rahbarlari oliy, professional va texnik ta’lim sohasida hamkorlikni rivojlantirish, teatr festivallari, madaniyat haftaliklarini o‘tkazish, birgalikda tarixiy filmlar suratga olish va madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish sohalarida hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha fikr almashdi.

Xulosa. O‘zbekiston va Turkiya aloqalarini o‘rnatishda avvalo hamkorlikning huquqiy asoslarini shakllantirishga ahamiyat qaratildi. Ikki davlat Prezidentlarining davlatlararo rasmiy uchrashuvlari, davlat tashriflari va yuqori darajadagi siyosiy muloqotlarida barcha sohalarida bitimlar imzolandi va ushbu hujjatlar asosida uning huquqiy asoslari shakllantirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz.6-jild.-Toshkent: O‘zbekiston,2023
2. Турция: новая роль в современном мире. – М.: ЦСА РАН, 2012. – 80 с. ISBN 978-5-906301-01-7
3. С83 Страны Востока в XXI веке: неравномерность экономического роста и неравенство социально-экономического развития. Тезисы конференции, посвященной памяти Виктора Георгиевича Растянникова / Отв. ред. И.В. Дерюгина, 2020. – 144 с.



4. Қуронов М. Қардошлик ва ҳамкорлик тантанаси // Ўзбекистон овози. 2018 йил 3 май.
5. Ортиқов Ш. Ўзбекистон – Туркия: буюк тарих бунёд этган икки улуг халқ // Халқ сўзи. 2018 йил 27 апрель.
6. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
7. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
8. <https://unctadstat.unctad.org> – Savdo va rivojlanish bo'yicha BMT konferensiyasi sayti